XALQ DEPUTATLARI BO‘KA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 2 - fevral VI-51-5-10-137-K/22 Bo‘ka tuman hokimligi

Mahallani bo‘lish va yangi mahalla tuzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga asosan Bo‘ka tumanidagi aholi soni yirik bo‘lgan fuqarolar yig‘inida boshqaruv tizimini maqbullashtirish bo‘yicha (Mahallani bo‘lish va yangi mahalla tuzish haqida) ishchi guruhi taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi:

QAROR QILADI:

1. Bo‘ka tumani hokimining 2020-yil 10-iyuldagi 243-1 Q-sonli qaroriga asosan Bo‘ka tumanidagi aholi soni ko‘p va yirik bo‘lgan fuqarolar yig‘inlarida boshqaruv tizimini maqbullashtirish bo‘yicha (Mahallani bo‘lish va yangi mahalla tuzish haqida) ishchi guruhi taklifi ma’qullansin.

2. Tumandagi bo‘linadigan va yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari nomi 1-ilova ga muvofiq;

tumandagi bo‘linadigan va yangi tuzilgan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining chegaralari 2-ilovaga muvofiq;

tumandagi bo‘linadigan va yangi tuzilgan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining aholi soni 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman qurilish bo‘limi (X.Ashurov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (B.Jo‘rayev), tuman DSI (A.Qodirov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Babaxanov) mazkur qaror bilan yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (X.Ashurovga)ga, tumanda yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organiga yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish topshirilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosi Xalq deputatlari Bo‘ka tuman Kengashi doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Н. Аббосов**

Халқ депутатлари Бўка туман
Кенгашининг
2022 йил 2 февралдаги
VI-51-5-10-137-K/22-сон қарорига
1-илова

1-ilova

Yangi tuziladigan mahalla va amaldagi mahalla nomi


№	Amaldagi MFY nomi	Yangi tuziladigan MFY nomi
1	Qo‘ldoshtepa MFY	Qo‘ldoshtepa MFY
2		Shodlik MFY
3	Xo‘jaqo‘rg‘on MFY	Xo‘jaqo‘rg‘on MFY
4		Ezgulik MFY

Халқ депутатлари Бўка туман
Кенгашининг
2022 йил 2 февралдаги
VI-51-5-10-137-K/22-сон қарорига
2-илова


2-ilova

Yangi tuziladigan mahalla va amaldagi mahalla chegaralari


Qo‘ldoshtepa MFY




Shodlik MFY



Xo‘jaqo‘rg‘on MFY



Ezgulik MFY


Тошкент вилояти Бўка туманида янги ташкил қилинаётган МФЙ
ХАРИТАСИ
Хўжақўрғон МФЙ
ташкил қилинаётган МФЙ

Халқ депутатлари Бўка туман
Кенгашининг
2022 йил 2 февралдаги
VI-51-5-10-137-K/22-сон қарорига
3-илова

3-ilova

Yangi tuziladigan mahalla va amaldagi mahalla aholi sonli

№	Amaldagi MFY nomi	Aholi soni	Yangi tuziladigan MFY nomi	Aholi soni
1	Qo‘ldoshtepa MFY	4 735 nafar	Qo‘ldoshtepa MFY	2 298 nafar
2			Shodlik MFY	1 811 nafar
3	Xo‘jaqo‘rg‘on MFY	4 621 nafar	Xo‘jaqo‘rg‘on MFY	2 298 nafar
4			Ezgulik MFY	2 323 nafar